



O'ZBEK TILI DARSLARIDA INSHONING YOZILISHI

Eshmurodova Roziya Siddiq qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
Turkiy tillar fakulteti, O'zga tilli guruhlarda O'zbek tili ta'lim yo'nalishi
2- kurs talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8313665>

ARTICLE INFO

Received: 23th August 2023

Accepted: 30th August 2023

Online: 31th August 2023

KEY WORDS

Adabiy insho, adabiy-ijodiy insho, erkin mavzudagi insho, "Alpomish" dostoni, asosiy qism, kirish qism, xulosa qism.

ABSTRACT

Ushbu maqolada, o'zbek tili dars jarayonida insholarning yozilishi, uni yozishda asosiy e'tibor beriladigan o'rinlari haqida yozilgan. Shu jumladan, insho yozish ketma-ketligi, asosiy g'oya va uning tahlil jarayonlari misollar yordamida tushuntirib o'tilgan.

O'zbek tili darslarini o'tish davomida insho, bayon, diktant kabi nazorat ishi yoki ularning bilimini mustahkamlash uchun topshiriqlar beriladi. Insho arabcha so'zdan olingan bo'lib "qurilish", fransuzcha "rasm" degan ma'nonlarni bildiradi. "Insho deb bir muallif nuqtai nazaridan yozilgan kichik hajmdagi matnga aytiladi. Insholar turlicha bo'ladi: manifest, tanqid, targ'ibot, kuzatuv va hokazo. Deyarli barcha insholar nasr shaklida yoziladi. Insho turlari 3 xil bo'lib bular: a) adabiy insho; b) adabiy-ijodiy insho c) erkin mavzudagi insho."¹

Adabiy inshoning tahlil jarayonida asar yoki undagi qahramonlari haqida yoritiladi. Masalan, "Alpomish" dostoni tahlilida undagi voqealar ketma - ketligi, dostonning asl g'oyasi haqida keltiriladigan bo'lsa, qahramonlarni tasvirlashda har bir qahramon yoki bosh obrazning taqdiri, xatti-harakati, dostonida keltirilgan yaxshi va yomon sifatlar, mardliklari, jasorati yo qo'rqoqligi aks ettiriladi. Inshoning bu turida o'quvchilar o'qigan asariga tayanib, ma'lum bir manbaga tayanib yozadi.

Adabiy-ijodiy inshoning adabiy inshodan farqi shundaki, badiiy asar yoki undagi qahramonlarning taqdirini tahlil qilishda o'z fikriga tayangan holda yoziladi. Ya'ni bu insho turida o'quvchining mustaqil fikriga e'tibor beriladi. Adabiy-ijodiy insho o'z nomiga xos bo'lib, ijod tomonidan, qahramonlarning qaysi tarafi yaxsh-yu qaysi tarafi yomonligi haqida tahlil qilinadi. Masalan, "Alpomish" dostonining bosh qahramoni Alpomish tahlil jarayonida uning mard, kuchli, qo'rqmas ekanligi dostonida keltirilgan, bu adabiy insho usuliga kiradi. Dostonni o'qib bo'lgach, asl ma'no - mazmuniga yetgach, erkatoy bir o'g'ilning sevgisiga qarshi kurashishi, hatto doston boshida u otboqardan ot ola olmay yig'lab qaytayotganda singlisi Qaldirg'ochoy akasiga dalda berib, "yigit ham shunday bo'ladimi?" - deya iziga qaytarganlari bu Alpomishning kamchiligidir. Sababi, bahodirlarga hech kimning daldasi, rad javobi ta'sir

¹ <https://arxiv.uz>



qilmaydi. Faqat oldinga harakat qiladi va maqsadiga erishadi. Insho yozish jarayonida bir soʻz tagida mingta ma'no bor. Bunga esa tahlil jarayonida amin boʻladi.

Erkin mavzudagi inshoda oʻquvchilarning maʼlum bir mavzuga oid bilimlari, dunyoqarashi, fikr-mulohazalari aks ettiriladi. Bu inshoning adabiy insholardan farqi shundaki, muallif adabiy insholarni yozishda baddiy - adabiy asarlarga tayansa, erkin mavzudagi insho oʻz fikr-mulohazasi, taassurotlari, kuzatishlari orqali hosil boʻladi. Erkin mavzudagi inshoda oʻquvchining soʻz qoʻllashi, gap tuzishi, eng asosiysi fikr-mulohazasi birinchi oʻrinda turadi.

Har bir narsaning oʻz qonun qoidasi boʻlganidek, insho yozilishining ham oʻz talab va istaklari bor. Birinchi navbatda inshoning mavzusiga alohida eʼtibor berilishi lozim. Agar mavzuni muallifning oʻzi tanlasa oʻz qiziqishlariga mos va kengroq tushunchaga ega boʻlgan mavzuni tanlagan maʼqul. Mavzu tanlangach unga mos kitoblar, manbalar topiladi. Sababi, inshoning yozilishida ular katta yordam berishi mumkin. Insho yozishda albatta reja tuziladi. Bu esa inshoning murakkabligini, unda isbotlanayotgan fikrni, qilinayotgan tahlilni ifodalashga xizmat qiladi. Uni yozishda 3 bosqichdan foydalaniladi. Kirish qism, asosiy qism, xulosa qism.

Kirish qismida mavzu nima haqida ekanligi, undagi asosiy elementlarni belgilab, soʻng mavzu boshlab beriladi. Asosiy qismda mavzuni toʻlaqonli yoritgach unga berayotgan tavsif uchun dalillar keltiriladi. Masalan: "Alpomish" dostoniga taʼrif berildi. Unga muallifning fikri qanday va qaysi manbalar bilan bu fikrni dallillay oladi. Muallif bergan va berayotgan har bir tavsifi uchun alohida dalil keltirilsa inshoning murakkabligi oshadi. Xulosa qismda esa mavzuga doir umumiy xulosa chiqariladi. Mavzudagi kamchiliklar, obrazlarning xarakteri, boʻrttirilgan sahnalar bularning bari haqida ushbu qismda aytib oʻtiladi. Inshoning soʻnggida mavzuni qayta oʻqib, kamchiliklar va xatolarni toʻgʻirlanadi. Bu inshoning sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, oʻzbek tilida insho yozish uchun mustaqil fikrlash, yaxshi tahlil qila olish kerak. Har bir soʻzga alohida eʼtibor beriladi va shu bilan birga mavzu nomiga ham. Insho yozishdagi qismlar, rejalar uning yozilishiga yordam berganidek, mavzu doirasidagi kitoblar, asosiy manbalar ham uning yaxshi chiqishiga asos boʻla oladi.

References:

1. Mahmudov N, Sobirov A, Sattorov Sh, Toshmirzayeva Sh, Mannopova D, 5-sinf Ona tili - Toshkent, 2020
2. Mirzayev I, Boltayev M, Oʻzbek tili - Toshkent, 2020
3. Qosimov K, Matjonov S, Gʻulomova X, Yoʻldosheva Sh, Sariyev Sh, Ona tili oʻqitish metodikasi - Toshkent, 2009
4. <https://uzhydroponicsbs.com>
5. <https://arxiv.uz>